

**MANAGEMENT AND ECONOMICS
SCIENTIFIC RESEARCH JOURNAL**

**MENEJMENT VA IQTISODIYOT
ILMIY-TADQIQOT JURNALI**

**НАУЧНО-ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКИЙ
ЖУРНАЛ МЕНЕДЖМЕНТА И ЭКОНОМИКИ**



☎ +998 95 651 90 00

✉ journals@timeedu.uz

📍 Shota Rustaveli ko'chasi, 114

🌐 tmijournals.ndc-agency.uz

✈ @TMII_ilmiy_bolim

Bosh muharrir:

Narbayev Sharafatdin Kengeshovich

Bosh muharrir o'rinbosari:

Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi

Muharrir:

Qarshiyeva Shahnoza Davlatovna

Tahrir hay'ati:

1. Sharipov Kongratbay Avezimbetovich – Minister of Higher Education, Science and Innovation of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Technical Sciences, Professor.
2. Akhmedov Khojiakbarxon Dilshotovich – Rector of the Tashkent Institute of Management and Economics, Candidate of Economic Sciences (PhD equivalent), Associate Professor.
3. Gulyamov Saidahrar Saidakhmedovich – Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan, Doctor of Economic Sciences, Professor.
4. Mamatov Narzullo Solidjonovich - Professor at the National Research University "Tashkent Institute of Irrigation and Agricultural Mechanization Engineers," Doctor of Technical Sciences.
5. Sultanov Mansur Kilichovich – Director General of the "Inno" Innovative Educational and Production Technopark under the Ministry of Higher Education, Science and Innovation, Doctor of Technical Sciences, Associate Professor.
6. Shamshieva Nargizakhon Nosirkhoja qizi - Secretary of the Council of Tashkent State University of Economics, Doctor of Economic Sciences, Professor.
7. Mukhamedieva Dildora Kabilovna - Professor at Tashkent University of Information Technologies, Doctor of Technical Sciences
8. Chertovitskiy Aleksandr Stepanovich – Professor at Tashkent Institute of Irrigation and Agricultural Mechanization Engineers National Research University, Doctor of Economic Sciences.
9. Popkova Yelena Gennadyevna – President of the "Institute of Scientific Communications" of the Russian Federation, Doctor of Economic Sciences, Professor.
10. Dr. Goh Khang Wen – Vice-Rector of INTI International University, Malaysia.
11. Wang Cheng – Associate Professor at the "Hebei Institute of Mechanical and Electrical Technology" in the People's Republic of China, PhD.
12. Yuldoshev Nuritdin Kurbonovich – Professor at Tashkent Institute of Management and Economics, Doctor of Economic Sciences.
13. Akramov Tohir Abdirakhmonovich – Professor at Tashkent Institute of Management and Economics, Doctor of Economic Sciences.
14. Sobirov Azizbek Avazbekovich – Associate Professor at Tashkent State University of Economics, PhD.
15. Rajabov Nazirdjon Razzakovich – Head of the Department of International Scientific Journals and Ratings, Alfraganus University, Candidate of Economic Sciences.
16. Khotamov Ibodullo Sadulloyevich – Professor at Tashkent Institute of Management and Economics, Candidate of Economic Sciences.
17. Turakulov Otabek Kholmizrayevich – Head of the Department of Engineering and Information Technologies at Tashkent Institute of Management and Economics, Doctor of Philosophy in Technical Sciences.
18. Yuldasheva Saodat Arislanovna – Head of the Department of Economics, Tashkent State Transport University, Candidate of Economic Sciences.
19. Giyosidinov Boburbek Baxtiyorovich - Acting Associate Professor at Tashkent State Transport University, Doctor of Philosophy.
20. Primov Sirojiddin Furqat ugli — Senior Lecturer at the Department of Business Management and Finance, Tashkent Institute of Management and Economics, PhD in Economics.

MUNDARIJA

Radjabov B.A.	Ta'lim tizimida sun'iy intellekt texnologiyalarini joriy etish tajribalari	3
Xakimov Z.A. Xidoyatov M.B.	O'zbekiston oliy ta'lim muassasalarida raqamli brendni shakllantirishda ijtimoiy tarmoqlarning ta'siri	10
Soliyev D.J. Oxunova D.O.	O'zbekistonda islomiy moliya munosabatlarini joriy etish: muommo va yechimlari	18
Abdufattoxonova X.	Sun'iy intellekt texnologiyalarining menejmentdagi qo'llanilishi: Imkoniyatlar va xavflar	25
Otaboyev F.O.	Jahon iqtisodiyotida iqtisodiy o'sish nazariyalari evolyutsiyasi va xalqaro kapital parakatini tartibga solish	31
Sharipov Sh.X.	Smart purkagichlar texnologiyalarining adabiy tahlili	44
Mamasoatov D.R.	Tadbirkorlik subyektlari eksportini rivojlantirishda raqamli platformalaridan foydalanish samaradorligini oshirish yo'llari	49
Han Zihao	A study on the impact of china-uzbekistan transportation connectivity projects on regional trade costs (e.g., the china-kyrgyzstan-uzbekistan railway)	54
Zhang Shaojie	A study on the economic effects of chinese aid in promoting the modernization of education in uzbekistan	61
Wang Anning	Trade Characteristics of Uzbekistan's Imports of Fruit and Vegetable Agricultural Products from Xinjiang, China	69
Omonturdiyev O.E.	O'zbekistonda biznesni boshqarish samaradorligini oshirish va moliyaviy resurslarni optimallashtirish istiqbollari	82
Xaydarov S.X.	Bank xizmatlari samaradorligini oshirishda raqamli bank xizmatlarining o'рни va bunda xorijiy mamlakatlar tajribasi	86
Sobirov A.A.	Marketing ekotizimini boshqarish va muvofiqlashtirish mexanizmlarini takomillashtirish yo'nalishlari	92
Akramov T.A.	Korxonalarda raqamli marketing kommunikatsiya strategiyalaridan foydalanish asosida raqobatbardoshligini oshirish	99
Abduraxmonova F.N.	To'qimachilik korxonalarida tejamkor ishlab chiqarishni rivojlantirish	107
Ботиров Л.Б. Хамидова Н.И.	Порядок организации системы бухгалтерского учета в промышленности строительных материалов	112
Hakimov A.L. Bozorboev X.T. Suyunov Y.B.	Aksiyadorlik jamiyatlarida biznes jarayonlarini boshqarishni raqamlashtirishda ilg'or xorijiy tajribalar tahlili	117
Сайдалиева Г.А.	Қишлоқ хўжалиги ерларини баҳолаш ва унинг натижаларидан фойдаланишнинг назарий ва услубий асослари	127
Mullajonov I.T.	Toshkent viloyatida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish imkoniyatlari	136
Qudratxo'jayev A.Q.	Sanoat korxonalari faoliyatini aylanma iqtisodiyot modeli asosida takomillashtirish	143

TOSHKENT VILOYATIDA KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISH IMKONIYATLARI

Mullajanov Iskandar Tadjibayevich

Toshkent menejment va iqtisodiyot instituti

Iqtisodiyot kafedrası assistenti

iskandarmullajanov56@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada Toshkent viloyatida kichik biznesning Yalpi hududiy mahsulotdagi ulushi va tarmoqlar bo'yicha taqsimlanishi chuqur o'rganilgan. Tadqiqotning metodologik asosini nazariy tahlil, statistik va iqtisodiy tahlil, tizimli yondashuv usullari tashkil etadi. Toshkent viloyatida kichik biznesni rivojlantirish uchun quyidagi takliflar ishlab chiqilgan: raqamli iqtisodiyotga o'tish jarayonini tezlashtirish, hududlarda tadbirkorlik klasterlarini shakllantirish, aholining ijtimoiy qatlamlarini tadbirkorlikka jalb etish, innovatsion va eksportga yo'naltirilgan faoliyatni rag'batlantirish. Ushbu chora-tadbirlarning amalga oshirilishi viloyat iqtisodiyotining barqaror rivojlanishiga, ish o'rinlari ko'payishiga va aholi turmush darajasining oshishiga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: kichik biznes, tadbirkorlik, iqtisodiy faollik, Yalpi hududiy mahsulot, raqamli iqtisodiyot, innovatsion rivojlanish, klasterlar, eksport salohiyati, moliyaviy resurslar.

Abstract. This article thoroughly examines the share of small business in the Gross Regional Product and its distribution by sector in the Tashkent region. The methodological basis of the research is the methods of theoretical analysis, statistical and economic analysis, and a systematic approach. The following proposals have been developed for the development of small business in the Tashkent region: accelerating the process of transition to a digital economy, forming entrepreneurial clusters in the regions, attracting social segments of the population to entrepreneurship, stimulating innovative and export-oriented activities. The implementation of these measures will contribute to the sustainable development of the region's economy, an increase in jobs, and an improvement in the living standards of the population.

Keywords: small business, entrepreneurship, economic activity, gross regional product, digital economy, innovative development, clusters, export potential, financial resources.

Аннотация. В данной статье подробно исследуется доля малого бизнеса в валовом региональном продукте и его распределение по секторам экономики Ташкентской области. Методологической основой исследования является теоретический анализ, статистико-экономический анализ и системный подход. Разработаны следующие предложения по развитию малого бизнеса в Ташкентской области: ускорение перехода к цифровой экономике, формирование бизнес-кластеров в регионах, привлечение социальных слоев населения к предпринимательству и поощрение инновационной и экспортно-ориентированной деятельности. Реализация этих мер будет способствовать устойчивому развитию региональной экономики, увеличению числа рабочих мест и повышению уровня жизни населения.

Ключевые слова: малый бизнес, предпринимательство, экономическая деятельность, валовой региональный продукт, цифровая экономика, инновационное развитие, кластеры, экспортный потенциал, финансовые ресурсы.

Kirish. So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasida iqtisodiyotning barqaror rivojlanishini ta'minlashda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning o'rni beqiyos ahamiyat kasb etmoqda. Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, har qanday davlatda iqtisodiy o'sishning muhim omili - bu aholining tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash, kichik va o'rta biznes subyektlarini rag'batlantirishdir. O'zbekiston hukumati tomonidan bu yo'nalishda tizimli islohotlar olib borilmoqda. Jumladan, 2023-2025 yillar mobaynida "Yangi O'zbekiston – Yangi iqtisodiyot" konsepsiyasi doirasida kichik biznesni rivojlantirish, mahalliy ishlab chiqaruvchilarni qo'llab-quvvatlash, yoshlar va ayollar tadbirkorligini kengaytirish, kredit resurslariga erkin kirish imkoniyatlarini yaratish bo'yicha qator farmon va qarorlar qabul qilindi. 2024-yil 12-yanvarda qabul qilingan "Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish va aholining iqtisodiy faolligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni ushbu yo'nalishda yangi bosqichni boshlab berdi. Farmonga muvofiq, kichik biznes subyektlari uchun soliq yukini kamaytirish, "Yoshlar tadbirkorligi" jamg'armasi faoliyatini kengaytirish, "Ayollar daftari" orqali moliyaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmlari joriy etildi [1]. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 10 noyabrdagi "Kichik va o'rta biznesni moliyaviy qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish

chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-193-son farmoni asosida har bir tuman va shaharda "Tadbirkorlar markazlari" tashkil etilib, aholini biznes faoliyatiga jalb etishning yangi tizimi yo'lga qo'yildi [2]. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 19 martdagi "Kichik va o'rta biznesning iqtisodiyotdagi o'rnini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-50-son farmoniga muvofiq 2025-yilda kichik va o'rta biznesni rivojlantirishning asosiy maqsadli ko'rsatkichlari etib quyidagilar belgilandi: kichik va o'rta biznesning yalpi ichki mahsulotdagi ulushini 55 foizga, sanoatda - 34 foizga, eksportda - 34 foizga va aholi bandligini ta'minlashda 75 - foizga yetkazish, kamida 600 nafar kichik va o'rta biznes subyektlarining yiriklashishiga ko'maklashish orqali ularni "champion" tadbirkorlarga aylantirish vazifalari hamda "2025-2030-yillarda kichik va o'rta biznesni rivojlantirish Strategiyasi" tasdiqlandi [3]. Qabul qilingan strategiyaga muvofiq 2030-yilga borib yalpi ichki mahsulot hajmini 200 milliard AQSH dollariga yetkazish, kambag'allik darajasini 5 foizdan pastga tushirish hamda O'zbekistonni daromadi o'rtachadan yuqori bo'lgan davlatlar qatoriga kiritish bo'yicha ustuvor vazifalar belgilandi. So'nggi yillarda O'zbekistonda tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash va biznes yuritish uchun qulay muhit yaratish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi. Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish, biznes jarayonlaridagi

ortiqcha byurokratik to'siqlarni bartaraf etish, investitsiyaviy jozibadorlikni oshirish maqsadida keng ko'lamli iqtisodiy va huquqiy islohotlar amalga oshirilmoqda.

Adabiyotlar sharhi. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari, shuningdek, bu jarayonning aholi iqtisodiy faolligiga ta'siri bo'yicha ko'plab mahalliy va xorijiy olimlarning ilmiy izlanishlari mavjud. Mazkur yo'nalishdagi tadqiqotlar asosan iqtisodiy o'sish, bandlikni ta'minlash, daromadlarni oshirish va ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlash masalalarini qamrab oladi. O'zbekiston iqtisodchi olimlari orasida A. Vahobov, Sh. Tashanov, N. Yusupov, M. Bozorov, N. Nosirova kabi iqtisodchilar kichik biznesning milliy iqtisodiyotdagi o'rnini, ularni qo'llab-quvvatlash mexanizmlari hamda tadbirkorlik muhitini yaxshilash masalalarini keng o'rganib chiqishgan. Ularning ilmiy ishlarida kichik biznes subyektlarini moliyalashtirish, soliq yengilliklari va infratuzilma qo'llab-quvvatlovi orqali aholi iqtisodiy faolligini oshirishning samarali yo'llari tahlil etilgan. Xorijiy adabiyotlarda esa J. Schumpeter, P. Drucker, M. Porter kabi iqtisodchilar tadbirkorlikni iqtisodiy innovatsiya va raqobatbardoshlikning asosiy manbai sifatida talqin etadilar. Ularning fikricha, kichik biznes iqtisodiyotda yangi ish o'rinlari yaratish, bozorni diversifikatsiya qilish va ijtimoiy faollikni kuchaytirishda muhim o'rin tutadi. So'nggi yillarda O'zbekistonda kichik biznesni qo'llab-quvvatlash borasida qator ilmiy-amaliy ishlanmalar amalga oshirilgan. Jumladan, tadbirkorlar huquqlari va qonuniy

manfaatlarini ishonchli himoya qilish chora-tadbirlari to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 14-noyabrdagi PF-184-son Farmoni hamda "Yoshlar tadbirkorligini rivojlantirish davlat dasturi" doirasida yaratilgan huquqiy asoslar mahalliy olimlarning ilmiy izlanishlarida o'z tsadiqini topgan [4]. Ko'pgina ilmiy manbalarda kichik biznesni rivojlantirish orqali aholi iqtisodiy faolligini oshirish quyidagi yo'nalishlar orqali amalga oshirilishi ta'kidlanadi: kichik tadbirkorlik subyektlariga kredit va investitsiya imkoniyatlarini kengaytirish; soliq imtiyozlari va yengilliklar yaratish; yoshlar va ayollar tadbirkorligini qo'llab-quvvatlash; mahalliy ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatishni rag'batlantirish [6]. Shuningdek, BMT, Jahon banki, Xalqaro valyuta jamg'armasi va Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki (EBRD) tomonidan tayyorlangan hisobotlarda ham kichik biznesni rivojlantirishning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati, u orqali aholi bandligini oshirish va kambag'allikni kamaytirish masalalari chuqur yoritilgan [7,8]. Umuman olganda, mavjud adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish nafaqat iqtisodiy o'sishning, balki aholini ijtimoiy faollikka jalb etishning ham muhim omilidir. Shu sababli mazkur yo'nalishda olib borilayotgan tadqiqotlar O'zbekistonning barqaror iqtisodiy taraqqiyotini ta'minlashda dolzarb ahamiyat kasb etadi

Metodologiya. Ushbu tadqiqotda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish orqali aholi iqtisodiy faolligini oshirish jarayonlarini

o'rganishda ilmiy tahlilning bir qator zamonaviy metodlari qo'llanildi. Tadqiqot metodologiyasi quyidagi asosiy yo'nalishlarga tayandi: Nazariy tahlil usuli – kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning iqtisodiy mohiyati, ularning aholi bandligi va daromadlarini oshirishdagi o'rni haqidagi ilmiy adabiyotlar, iqtisodchi olimlarning asarlari, Prezident farmon va qarorlari o'rganildi hamda umumlashtirildi. Tizimli yondashuv usuli – kichik biznesni iqtisodiy tizimning tarkibiy qismi sifatida ko'rib chiqib, uning ishlab chiqarish, moliya, soliq, bandlik va ijtimoiy sohalar bilan o'zaro bog'liqligi tahlil qilindi. Bu yondashuv orqali tadbirkorlikning aholi iqtisodiy faolligiga bevosita va bilvosita ta'sir mexanizmlari aniqlab olindi. Statistik va iqtisodiy tahlil usuli – O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi, Markaziy bank va Iqtisodiyot va moliya vazirligining ochiq ma'lumotlari asosida

kichik biznes subyektlari soni, bandlik darajasi, yalpi ichki mahsulotdagi ulushi hamda tadbirkorlikdan olinayotgan daromadlar tahlil qilindi. Dinamik o'zgarishlar yillar kesimida ko'rsatkichlar orqali hisoblab chiqildi.

Tahlil va natijalar. O'zbekiston iqtisodiyotida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik so'nggi yillarda iqtisodiy o'sishning asosiy drayverlaridan biriga aylandi. Bu soha aholini ish bilan ta'minlash, ularning daromadlarini oshirish hamda iqtisodiy faollikni kuchaytirishda muhim rol o'ynaydi. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra, kichik biznesning Yalpi ichki mahsulotdagi (YaIM) ulushi va bandlikdagi hissasi yildan yilga oshib bormoqda (1-jadval).

1-jadval.

O'zbekistonda kichik biznesning asosiy ko'rsatkichlari (2020–2024-yillar)

Yil	Kichik biznesning YaIMdagi ulushi (%)	Band aholining kichik biznesdagi ulushi (%)	Kichik biznes subyektlari soni (mingta)	Yangi tashkil etilgan korxonalar (mingta)
2020	54,5	74,0	391	46,8
2021	55,3	75,2	410	49,1
2022	56,9	76,0	432	52,7
2023	58,1	77,5	460	56,3
2024	59,4	78,9	487	61,0

Manba: O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida tayyorlandi. O'zbekiston iqtisodiyotida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik muhim rol o'ynaydi, yaqin yillarda davlat siyosati ushbu sohani

qo'llab-quvvatlashga qaratilgan bir qator islohotlarni amalga oshirdi. Toshkent viloyati aholi soni, iqtisodiy salohiyati va geografik joylashuvi jihatidan respublikada alohida o'rinni egallaydi. Viloyatda 2,9 milliondan ortiq aholi

istiqomat qiladi va u respublikaning eng yirik sanoat, qishloq xo'jaligi va logistika markazlaridan biridir. Viloyatda kichik biznesni rivojlantirish nafaqat ish o'rinlari yaratish va aholi daromadlarini oshirish,

balki mintaqaviy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishi, innovatsiyalarni joriy etish va iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash uchun ham muhimdir.

2-jadval.

Toshkent viloyatida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning iqtisodiyot tarmoqlaridagi asosiy ko'rsatkichlari hajmi

Yillar	Sanoat (mlrd.so'm)	Qurilish (mlrd.so'm)	Bandlik (ming kishi)	Savdo (mlrd.so'm)	Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi (mlrd.so'm)	Xizmatlar (mlrd.so'm)
2020	65949,9	2961,1	833,4	16208,8	22919,9	11320,4
2021	2726,3	1581,7	853,3	3661,7	3620,8	3194,7
2022	2985,9	2005,8	843,3	3941,8	3895,4	4015,2
2023	5187,2	4466,8	872,0	4785,8	4501,7	4951,1
2024	33823,4	12047,0	885,1	15015,8	2408,8	9856,2
2025- yil (yanvar- sentyabr)	35276,2	21016,0	846,3	25491,8	34197,9	35162,5

Manba: <https://toshvilstat.uz/uz/rasmiy-statistika/small-business-and-entrepreneurship-2>

Toshkent viloyatining Yalpi hududiy mahsuloti (YHM) 2024-yilda 151 251,8 mlrd so'mni tashkil qilgan bo'lsa, 2025-yil yanvar-sentabr oylarida 126 761,2 mlrd. somni tashkil qildi. Viloyat YHMda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning ulushi 2024-yilda 53,9 foizni tashkil qilgan bo'lsa, 2025-yilning 9 oyida 53,5 foizga etdi. Jumladan, 2024-yilda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning ulushi sanoatda 24,4, qurilish sohasida 83,1, bandlik sohasida 71,1 foizni tashkil qilgan bo'lsa, joriy yilning 9 oyi mobaynida mos holda 53,5, 29,7, 83,3 va 72,4 foizni tashkil qildi (2-jadval) [5]. Viloyatning barcha

tumanlarida kichik biznes sub'ektlari soni barqaror o'sish sur'atiga ega, yiliga o'rtacha 8-12 foizni tashkil etmoqda. Bu davlatning qo'llab-quvvatlash siyosati, iqtisodiy barqarorlik va aholining tadbirkorlikka bo'lgan qiziqishining oshishi bilan izohlanadi. Viloyatning Yangiyo'l, Zangiota va O'rta Chirchiq tumanlari ko'rsatkichlarning mutlaq qiymati bo'yicha yetakchilik qilmoqda. Buning sababi – Toshkent shahriga yaqin joylashuvi, aholining ko'pligi va rivojlangan infratuzilma. Yangiyo'l – yengil sanoat, kichik ishlab chiqarish va savdo sohasida yetakchi. O'rta

Chirchiq va Quyi Chirchiq – qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirish va qayta ishlash, Parkent va Bo‘stonliq tumanlari – bog‘dorchilik, meva yetishtirish va turizm xizmatlari, Bekobod esa – sanoat zonasiga yaqinligi tufayli sanoat ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish sohalariga ixtisoslashgan. Viloyatda kichik biznesning iqtisodiyotdagi ulushi yildan-yilga ortib borayotgan bo‘lsa-da, ayrim muammolar saqlanib qolmoqda. Avvalo, moliyaviy resurslarga kirish imkoniyatining cheklanganligi kichik biznes subyektlarining kengayishiga to‘sqinlik qilmoqda. Tijorat banklari tomonidan ajratilayotgan kreditlar yuqori garov talablari va foiz stavkalari tufayli barcha tadbirkorlar uchun birdek qulay emas. Ikkinchi muammo - malakali kadrlar ta‘minoti. Aksariyat kichik biznes vakillari zamonaviy menejment, marketing va raqamli texnologiyalarni joriy etishda yetarli bilim va ko‘nikmaga ega emas. Kichik korxonalarning 80 foizdan ortig‘i zamonaviy marketing (masalan, onlayn savdo, SMM) va innovatsion texnologiyalarni joriy etishda malaka va moliyaviy resurslar etishmasligidan aziyat chekmoqda. Uchinchi muammo sifatida ichki bozorda raqobatning adolatli shakllanmagani va ayrim hududlarda katta korxonalar ustunlikka ega ekani qayd etish mumkin. Shuningdek, tashqi savdoda eksport mahsulotlarining xalqaro standartlarga mos emasligi, logistika infratuzilmasining to‘liq rivojlanmagani

ham kichik biznesning global bozorga kirib borishini qiyinlashtirmoqda.

Xulosa va takliflar. O‘zbekiston Respublikasida olib borilayotgan iqtisodiy islohotlarning markazida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish masalasi turadi. Chunki kichik biznes nafaqat yangi ish o‘rinlarini yaratadi, balki aholining iqtisodiy faolligini oshiradi, daromadlar manbaini kengaytiradi va hududlar iqtisodiy salohiyatini oshiradi. 2023–2025 yillarda Prezident rahbarligida qabul qilingan bir qator farmon va qarorlar tadbirkorlik faoliyatini qo‘llab-quvvatlash, soliq yukini kamaytirish, kredit-moliya tizimini soddalashtirish hamda innovatsion infratuzilmani rivojlantirishga qaratildi. Bu esa amaliy natijalarda o‘z aksini topmoqda - YaIMda kichik biznes ulushi 60 foizga yaqinlashmoqda, eksport hajmi kengaymoqda, kambag‘allik darajasi esa qisqarib bormoqda. Biroq, mavjud muammolar hamon dolzarb bo‘lib qolmoqda. Eng avvalo, tadbirkorlar uchun moliyaviy resurslardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish, raqamli infratuzilmani takomillashtirish hamda eksportga yo‘naltirilgan kichik biznesni rivojlantirish zarur. Shu boisdan, davlat siyosatida quyidagi yo‘nalishlarga alohida e‘tibor qaratish maqsadga muvofiq:

1. Raqamli iqtisodiyotga o‘tish jarayonini tezlashtirish - kichik biznes subyektlari uchun onlayn xizmatlar va elektron hisobot tizimini to‘liq joriy etish.

2. Hududlarda tadbirkorlik klasterlarini shakllantirish - ishlab chiqaruvchi, yetkazib beruvchi va xizmat ko'rsatuvchi korxonalarni yagona zanjirga birlashtirish.

3. Aholining ijtimoiy qatlamlarini tadbirkorlikka jalb etish - ayniqsa yoshlar va ayollar uchun imtiyozli kreditlar, subsidiyalar va grantlar dasturlarini kengaytirish.

4. Toshkent viloyati O'zbekistonda kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirishning eng istiqbolli mintaqalaridan biridir. Uning geografik, iqtisodiy va ijtimoiy afzalliklari (yirik bozor, yaxshi infratuzilma, malakali

ishchi kuchi) mavjud bo'lsa-da, bu imkoniyatlar hali to'liq amalga oshirilmagan.

5. Innovatsion va eksportga yo'naltirilgan faoliyatni rag'batlantirish: kichik biznesni yangi, yuqori qo'shilgan qiymatli sohalarga yo'naltirish va ularning eksport salohiyatini oshirish.

Xulosa qilib aytganda, ushbu chora-tadbirlarning amalga oshirilishi Toshkent viloyatida kichik biznesning barqaror va muvozanatli rivojlanishini ta'minlaydi, bu esa o'z navbatida viloyat iqtisodiyotining o'sishiga, ish o'rinlari ko'payishiga va aholi turmush darajasining oshishiga olib keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 12-yanvardagi PF-22-son Farmoni "Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish va aholining iqtisodiy faolligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida".
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 10 noyabrdagi "Kichik va o'rta biznesni moliyaviy qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-193-son farmoni. <https://lex.uz/ru/docs/-6658633>
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 19 martdagi "Kichik va o'rta biznesning iqtisodiyotdagi o'rnini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-50-son farmoni. <https://lex.uz/uz/docs/-7444738>
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 14-noyabrdagi "Tadbirkorlar huquqlari va qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-184-son farmoni. [PF-184-son 14.11.2024. Tadbirkorlar huquqlari va qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilish chora-tadbirlari to'g'risida.](#)
5. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari. <https://stat.uz/uz/>
6. "Yangi O'zbekiston – Yangi iqtisodiyot" konsepsiyasi (2023–2025-yillar).
7. Jahon banki va Xalqaro valyuta jamg'armasi (IMF) hisobotlari, 2024-yil.
8. Abdullayev, I. va Karimova, N. "Tadbirkorlikni rivojlantirishning zamonaviy yo'nalishlari." – Toshkent: Iqtisodiyot nashriyoti, 2024-y.

Ingliz tili muharriri: Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi
Musahhih: Vahobova Marfua Mirkamalovna
Sahifalovchi va dizayner: Zoirov Sardor Ziyodin o'g'li

2025. № 4

© Materiallar ko'chirib bosilganda **"Management and Economics Scientific Research Journal"** jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El. pochta: journals@timeedu.uz

Tel.: +998 95 651 90 00

"Management and Economics Scientific Research Journal" jurnali 19.09.2024-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 404368-son reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan. Litsenziya raqami:

C-5669639

PNFL: 308906510

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yakkasaroy tumani
Shota Rustaveli ko'chasi, 114